IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: FH59695442

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**Qo‘qon davlat universiteti**

**rektori D.Sh.Xodjayeva**

**29-avgust 2025-yil**

# MUTAXASSISLIKKA KIRISH FANI BO‘YICHA FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistik va axborot |
| **Ta’lim sohasi:** | 310000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60310300 – Psixologiya |

| **Fan/modul kodi** MK1106 | **O‘quv yili** 2025-2026 | **Semestr** 1 | **Kreditlar** 6 | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Fan/mavzu turi** Majburiy | **Ta’lim tili** O’zbek | | **Haftadagi dars soatlari** 4 | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.** | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Kurs ishi (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Mutaxassislikka kirish** | 60 | 120 | - | 180 |

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

Ushbu Mutaxassislikka kirish fani dasturini ishlab chiqishda Moskva davlat universiteti psixologiya yo‘nalishi bakalavriat talabalari uchun ishlab chiqilgan fan dasturlarini tahlil qilinib, ularning ma’lumotlaridan mazkur dasturni tuzishda foydalanildi. Jumladan, 1-mavzu Psixologiya kasb sifatida, 2-mavzu Psixologning kasbiy faoliyati, 3-mavzu Psixologning faoliyat turlari va sohalari. Professional muhim fazilatlar, 4-mavzu Psixolog shaxsi va 5-mavzu Kasbiy shakllanish (rivojlanish) bosqichlari va shartlari mavzular tarkibidagi mavzulari mazmuniga kiritildi.

**Fanni o‘qitishdan maqsad** - talabalarni psixologik kasblar dunyosi, psixologning kasbiy faoliyati turlari va psixologik yordam usullari haqida yaxlit tasavvurni shakllantirish; kasbiy o‘zini o‘zi aniqlashning asosiy tushunchalari va usullarini o‘zlashtirish; ta’lim oluvchilarning qadriyatli-ma’noviy sohasini rivojlantirishga ko‘maklashish va ularning psixolog kasbini egallash motivatsiyasini rag‘batlantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** - psixologiyadagi kasblar va ularning hayotimizdagi o‘rni haqida umumiy tushuncha berish;
- psixologning asosiy ish sohalari va faoliyat turlarini ko‘rsatish;
- kasbiy shakllanish bosqichlari bilan tanishtirish;
- talabalarni psixologning asosiy maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari bilan tanishtirish;
- psixolog shaxsiga kasb tomonidan qo‘yiladigan talablar bilan tanishtirish;

**Fanning asosiy manbalari:**

Mutaxassislikka kirish — Amaliy psixolog mutaxassisining kasbiy xususiyatlari, Psixologning intellektual salohiyati, O’zaro ta`sir va hamkorlikka ehtiyoj, Faoliyatning maqsadini anglash, Amaliy psixolog faoliyatini tashkil etish haqidagi fan.

Mutaxassislikka kirish — bu talabalarni tanlagan kasblariga yo'naltiruvchi va psixologiya olamiga yetaklovchi, psixolog kasbini o‘rganadigan fan. Ushbu

fan talabalarga mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha kasbiy layoqatini oshirish va ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bular Mutaxassislikka kirish fanining manbalaridir.

**Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi:**

Mutaxassislikka kirish fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Moskva davlat universiteti psixologiya yo‘nalishi bakalavriat talabalari uchun ishlab chiqilgan o‘quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo‘yicha yuqori o‘rinni egallagan bo‘lib, pedagogika va psixologiya sohasi bo‘yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega.

Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:

**Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi** – Moskva davlat universitetida zamonaviy ta’lim-tarbiya nazariyasi bilan bir qatorda amaliyoti ham keng yoritiladi.

**Xalqaro standartlarga muvofiqlik** – dastur xalqaro ta’lim standartlari asosida ta’lim mazmuni modernizatsiya qilingan, ayniqsa ta’lim modellari, XXI asr jahon ta’lim tizimidagi global tendensiyalar va Xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari asosida boyitilgan.

**Tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish** – talabalar psixolog ishlarini o'rganish, psixologik nizoli vaziyat holatlarni mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda to’g’ri xulosa chiqarishni o‘rganadilar.

## II. Nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)

**Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

### 1-mavzu. Psixologiya kasb sifatida.

Kasbning jozibadorligi, "qadr-qimmati" va kasbiy motivatsiyaning xususiyatlari. Psixologning kasbiy (psixologik) muhitdagi va ommaviy ongdagi obrazi. D.Syuperning "Men konsepsiyasi" va kasbning kongruentligi (mosligi) haqidagi tasavvuri.

### 2-mavzu. Psixologning kasbiy faoliyati.

Psixologning kasbiy faoliyatining mazmuni va ahamiyati. Psixologning kasbiy pozitsiyasi va yordam tushunchasi psixologiya, tibbiyot, pedagogika, din va yurisprudensiya fanlarida. Psixologning kasbiy faoliyati samaradorligi. Kasbiy kompetentlik va uning mezonlari. Amaliyotchi psixolog ishida «kasbiy charchash»ning o‘ziga xos xususiyatlari va uning nojo‘ya oqibatlari. Psixologning kasbiy faoliyatidagi og‘ishlar.

### 3-mavzu. Psixologning faoliyat turlari va sohalari. Professional muhim fazilatlar (PIQ).

| | |
|---|---|
| | Psixologning kasbiy pozitsiyasi. Kasb tomonidan psixologning individual xususiyatlari va shaxsiga qo‘yiladigan talablar: tadqiqotchi psixolog, amaliyotchi psixolog va psixologiya o‘qituvchisining kasbiy muhim sifatlari (KMQ). Psixolog faoliyatining turlari, tashkilotlarda, ta’lim tizimlarida va sog‘liqni saqlashda mehnat lavozimlarining xilma-xilligi.<br><br>**4-mavzu: Psixolog shaxsi.**<br><br>Psixolog "mutaxassis" va "professional" sifatida. Psixologning kasbiy o‘z-o‘zini anglash xususiyatlari va uni rivojlantirish shart-sharoitlari. Mutaxassislarni attestatsiyadan o‘tkazish va litsenziyalash. O‘z kasbiy faoliyatining refleksiyasi. O‘z ishida o‘zini "ko‘rish" ehtiyoji; o‘z mehnatining mahsuldorligini xolisona va mustaqil baholash qobiliyati.<br><br>**5-mavzu: Kasbiy shakllanish (rivojlanish) bosqichlari va shartlari.**<br><br>Psixolog kasbini tanlashni belgilovchi motivlar va bu tanlovga ta’sir etuvchi omillar. O‘zini professional sifatida tasavvur qilish kasbiy shakllanishning yetakchi ma’no hosil qiluvchi motividir.<br><br>**6-Mavzu: Mashhur psixologlarning psixologiya yo'nalishiga kirib kelishi**<br><br>Vilgelm Vundtning psixologiya faniga qo'shgan hissasi**.** Zigmund Freydning psixologiya fanidagi o'rni**.** O'zbekistonda psixologiyani rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar.<br><br>**7-Mavzu: Ta`lim muassasalarida psixologik xizmat kursining predmeti va vazifalari**<br><br>Ta`lim tizimida psixologik xizmat maqsadi, predmeti va vazifalari. Psixologik xizmat metodlari, bo’g’inlari. Psixologik xizmat yo’nalishlari.<br><br>**8-mavzu. Ta`lim muassasalarida psixologik xizmat tashkil etilishi tarixi.**<br><br>Rossiya, AQSH, Kanada ta`lim tizimida psixologik xizmat. Ta`lim tizimida psixologik xizmatning Evropa tajribasi (Frantsiya, Germaniya, Chexiya, Vengriya). O’zbekistonda psixologiyaning rivojlanishi.<br><br>**9-mavzu: Ta`lim muassasasi psixologining me`yoriy hujjatlari**<br><br>O’zbekistonda psixologik xizmat haqida Nizomning qabul qilinishi va |

uning asosiy bo'limlari. Nizomga ko'ra psixologning burch va majburiyatlari. Nizomga kiritilgan o'zgartirishlar. Psixologik xizmatni joriy etish bo'yicha davlat hujjatlari.

**10-Mavzu: Psixolog mutaxassisning kasbiy xususiyatlari.**

Psixologning intellektual salohiyati. Psixologning kasbiy etikasi. Psixolog ishlarini rejalashtirish.

**11-Mavzu: Psixolog faoliyatining asosiy yo'nalishlari.**

Psixologik ma`rifat. Psixologik profilaktika. Psixodiagnostika amaliy psixolog faoliyatining asosi sifatida. Pedagog - psixolog faoliyati tizimida psixologik maslahat. Psixokorrektsiya ta`lim muassasalarida psixolog faoliyatining asosiy yo'nalishi sifatida.

**12-Mavzu. Psixologning asosiy faoliyat turlarini tashkillashtirish**

Maktab psixologi faoliyati turlari: psixoprofilaktika, psixologik targ'ibot, psixodiagnostika, psixologik konsultatsiya, psixokorreksiya, psixologik ekspertiza. Ta`lim oluvchilarni psixik rivojlanishi diagnostikasi, psixokonsultaiya va psixokorreksiyaga umumiy yondashuvlar. Maktab psixologining professional faoliyatini samaradorligi ko'rsatkichlari va shartlari.

**13-mavzu. Psixolog ish joyini tashkil qilish**

Psixologik xizmat xonasi haqida Nizom. Ijtimoiy va tashkiliy-metodik hujjatlar. Psixolog faoliyatida rejalashtirish va uning turlari. Psixolog ishi tsiklogrammasi. Psixolog muassasada ishni nimadan boshlashi kerak. Psixologning o'zini reklama qilishi.

**14-mavzu: Psixologik faoliyatda kommunikatsiya**

Samarali muloqot asoslari. Faol tinglash va empatiya. Muloqotdagi to'siqlar va ularni bartaraf etish. Mijoz bilan ishlashda suhbat o'tkazish texnikalari.

**15-mavzu: Psixologik maslahat berish (konsultatsiya)**

Konsultatsiyaning bosqichlari. Psixologik konsultatsiya turlari. Maslahat berishda kuzatish va savol-javob texnikasi. Mijoz shaxsini rivojlanish uchun psixologik maslahatlar.

**V. Seminr mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Seminar mashg’ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Psixologiya kasb sifatida.
2. Psixologning kasbiy faoliyati.
3. Psixologning faoliyat turlari va sohalari. Professional muhim fazilatlar (PIQ).
4. Psixolog shaxsi.
5. Kasbiy shakllanish (rivojlanish) bosqichlari va shartlari.
6. Mashhur psixologlarning psixologiya yo'nalishiga kirib kelishi
7. Ta`lim muassasalarida psixologik xizmat kursining predmeti va vazifalari
8. Ta`lim muassasalarida psixologik xizmat tashkil etilishi tarixi.
9. Ta`lim muassasasi psixologining me`yoriy hujjatlari
10. Psixolog mutaxassisning kasbiy xususiyatlari.
11. Psixolog faoliyatining asosiy yo’nalishlari.
12. Psixologning asosiy faoliyat turlarini tashkillashtirish
13. Psixolog ish joyini tashkil qilish
14. Psixologik faoliyatda kommunikatsiya
15. Psixologik maslahat berish (konsultatsiya)

## VII. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo’yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- ma’ruzalar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va guruhiy o’quv loyihasi;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg’ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;

ta’lim yo’nalishi (mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

**Mustaqil ta’lim bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar**

**Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilgan mavzular:**

| | |
|---|---|
| | 1. Fan mavzulariga oid topshiriqlar (test topshiriqlari va masalalarni farqlanishi) turlari va ularni echimlari ustida ishlash.<br>2. Fanga oid qoida, misol, masala, topshiriqlar hamda loyiha ishlarini bajarishning eng sodda usullarini topish va o'rganish.<br>3. Psixologiya fanining asosiy kategoriyalari.<br>4. Psixologik asosiy qonuniyatlari.<br>5. Psixologning muassaga moslashishi, faoliyatining dastlabki bosqichlari.<br>6. Joriy va istiqbol reja tuzish.<br>7. Psixologning maktabgacha tarbiya muassasasida tarbiyachilar va ota-onalar bilan ish olib borishi.<br>8. Psixologning maktabda o'qituvchilar va ota-onalar bilan ish olib borishi.<br>9. Kichik maktab va o'smir yoshidagi o'quvchilarda ijodiy tafakkurniri vojlantirish.<br>10. O'quvchilarda kitob o'qishga qiziqishni rivojlantirish.<br>11. Maktabgacha yoshdagi bolalardai jodiy xayolni rivojlantirish.<br>12. Kompyuter va telefon o'yinlariga tobe bolalarga psixologik yordam.<br>13. Tortinchoq bolalarga psixologik yordam.<br>14. Giperaktiv bolalarga psixologik yordam.<br>15. Yuqori sinf o'quvchilarining psixologik muammolarini hal qilish texnologiyasi<br>16. Ijtimoiy-pedagogik qarovsizlik vaziyatida bolalarga psixologik yordam ko'rsatish.<br>17. Bolalar va o'smirlarning deviant xulq-atvori psixolog faoliyati yo'nalishlaridan biri sifatida.<br>18. Bolalar va o'smirlarga inqirozli vaziyatlarda yordam ko'rsatish.<br>19. Ta`lim muassasasi psixologi faoliyatining modellari.<br>20. Psixolog mehantini tashkil etish<br>21. Ta`lim muassasalarida psixolog ishining mazmuni va shakllari.<br>22. Ta`lim jarayonini gumanizatsiyalash ta`limda psixologik xizmatni tashkil etishning maqsadi sifatida.<br>23. Psixodianostika ta`lim muassasasi amaliy faoliyatining asosi sifatida.<br>24. Pedagog-psixolog faoliyatida psixologik maslahat.<br>25. Ta`lim muassasasi psixologi faoliyatida psixokorreksiyaning o'ziga xosligi.<br>26. Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyalanuvchilariga psixologik yordam ko'rsatish.<br>27. Psixologning kichik maktab yoshidagi bolalar bilan olib boradigan faoliyati.<br>**28.** Psixologning o'smirlar bilan ishlash texnologiyasi<br><br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan nazariy material konspekti, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |

| | |
|---|---|
| **3.** | **VIII. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Talaba bilish kerak:**<br>- psixologik xizmat predmeti, psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari, maktabdagi psixologik xizmat mahsuldorligining sharoitlari, bola taraqqiyoti uchun qulay psixologik iqlim yaratish, psixologning diagnostik korreksion ishi **tasavvurga ega bo'lishi**; **(bilim)**<br>- talaba psixolog mutaxassis va shaxs sifatida, maktabgacha tarbiya muassasasidagi psixolog ishi, birinchi sinfga kelayotgan bolalar bilan, umum ta`lim maktabida, xususiy maktabda olib boriladigan ishlar, mehribonlik uylaridagi, ta`lim departamentidagi psixolog ishi, psixologning o'qituvchilar bilan olib boradigan ishlari bo'yicha **bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)**.<br>- talaba maktabgacha tarbiya muassasasida olib boriladigan rivojlantiruvchi mashqlar, bolalarni o'qishga tayyorlash mashqlari, bolalarning maktabda o'qishga tayyorligini aniqlash dasturi, o'smirlar va ilk o'spirin uchun o'quv faoliyatining individual uslubi, maktab psixologi barcha ish turlarini bilishi, bola uchun qulay iqlim yaratish, maktab psixologining kasbga tayyorgarligi, psixologning maktab jamoasi bilan hamkorligi, o'quvchilarga individual yondashuv xizmatning asosiy tamoyillariga doir ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka) |
| **4.** | **X. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>– ma'ruzalar;<br>– interfaol keys-stadilar;<br>– seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>– guruhlarda ishlash;<br>– taqdimotlarni qilish;<br>– individual loyihalar;<br>– jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **XI. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Nishanova Z.T. F.F.Rasulova «Psixologik xizmat» (O'quv qo'llanma). T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.<br>2. Nishanova Z.T., Alimova G.K, Sulaymonov M.V.«Psixologik xizmat» T.: Turon-Iqbol, 2014.<br>3. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya.-T.: Ijod- Press. 2019.<br>4. Ovcharova R.V. Prakticheskaya psixologiya obrazovaniya / R. V. Ovcharova. - Moskva, 2007. - 445 s |

| | |
|---|---|
| | 5. Potapova A.V. Nartova – Bochaver S.K. Detskaya psixologicheskaya slujba. 2001.<br>6. M.Atajonov, D.Saliyeva, N.Jurayev. Psixologiya tarixi. Darslik. T.:Innovatsiya-Ziyo, 2022.<br>7. N.Rajabov. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. T.:O'qituvchi, 1991.<br>8. Введение в профессию: учеб.-метод. пособие по дисциплине для студентов направления подготовки 030300.62 «Психология» (бакалавриат) дневной и заочной форм обучения / сост. Н.Я. Трусова. – Тольятти : ТГУ, 2010. – 64 с.<br>9. **Карандашев В.Н.** Введение в профессию. М.: Смысл, 2000. - 288 с.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1. Тетушкина М.К. Психологическая помошь и консультирование в практической психологии. М.: Владость 2001.<br>2. Потапова А.В. Нартова – Бочавер С.К. Детская психологическая служба. М.: Речь 2001<br>**Axborot manbaalari:**<br>16. www. tdpu. uz<br>17. www. pedagog. uz<br>18. www. Ziyonet. uz<br>19. www.edu. Uz<br>20. https://psy-msu.ru/educat/<br>23. https://kpfu.ru/pdf/portal/oop/364254.pdf |
| **7.** | Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modu luchun mas'ul va dastur muallifi:**<br>Yulchiboyeva Dilfuza Ergashevna - Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>M.Isaqova – FarDU Psixologiya kafedrasi professori, DsC<br>N.Halimova - Andijon davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrasi professori, DsC |